

## OYOQLARNING O'TKIR ISHEMIYASIDA ARTERIAL TROMBOZ DIAGNOSTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: MULTISPIRAL KOMPYUTER- TOMOGRAFIK ANGIOGRAFIYA VA DUPELEKS SKANERLASH IMKONIYATLARI

Saxiboyev Dilshod Parpijalilovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son fakultet va gospital jarrohlik kafedrası dotsenti, t.f.d.

Boltayev Axmadjon Abdufattoyevich

RSHTYOIM Namangan filiali va Angiomed davolash maskani klinikasi  
qon tomir xirurgi, t.f.n.

Sobitxanova Sevara Farhadjonovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21065466>

Oyoqlarning o'tkir ishemiyasi bilan kechuvchi arterial trombozlarda tromb chegaralarini, distal o'zan holati va kollateral tarmoqlarni aniq baholash xirurgik taktika tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy dupeleks skanerlash (RDS) ko'p hollarda yetarli bo'lsa-da, ayniqsa tibioperoneal segmentda va ko'p sathli zararlanishlarda tashxislash xatoliklari kuzatiladi. Shu bois yuqori aniqlikdagi MSKT-angiografiyani joriy etish orqali diagnostika algoritmini takomillashtirish dolzarb vazifadir.

Maqsad. O'tkir arterial trombozda RDS va MSKT-angiografiyaning diagnostik samaradorligini qiyosiy baholash hamda optimal vizualizatsiya algoritmini ishlab chiqish. Material va usullar. Rutherford IIB–III darajali o'tkir oyoq ishemiyasi bilan yotqizilgan 128 bemor tekshiruvdan o'tkazildi. Barcha bemorlarga dastlab RDS, so'ngra MSKT-angiografiya amalga oshirilib, tromb lokalizatsiyasi, proksimal va distal chegaralari, distal arterial o'zan o'tkazuvchanligi hamda kollateral qon aylanish darajasi mustaqil ravishda ikki mutaxassis tomonidan baholandi. "Oltin standart" sifatida operatsiya vaqtidagi bevosita reviziya ma'lumotlari olindi. Ikkala usulning sezgirlik, xoslik va aniqlik ko'rsatkichlari hisoblandi.

Natijalar. MSKT-angiografiya trombnining distal chegarasini 94% hollarda aniq belgiladi, RDSda bu ko'rsatkich 71% ni tashkil etdi ( $p < 0,05$ ). Ayniqsa, popliteal-tibioperoneal segment darajasida MSKT ustunligi yaqqol namoyon bo'ldi – sezgirlik 96% ga nisbatan 68%, xoslik 92% ga nisbatan 74%. MSKT qo'llanilishi 36 nafar (28%) bemorda jarrohlik taktikasini o'zgartirishga olib keldi: 19 bemorda qo'shimcha distal rekonstruksiya rejalashtirildi, 17 bemorda esa trombolitik terapiyadan voz kechib, ochiq aralashuv foydasiga qaror qilindi. Ko'p sathli zararlanishlarda MSKT angiosoma yo'nalishidagi okklyuziyalarni qo'shimcha aniqlab, RDSga nisbatan 31% ko'proq diagnostik ma'lumot berdi.

Xulosa. O'tkir oyoq ishemiyasida MSKT-angiografiya va dupeleks skanerlashni kombinatsiyalash tromb morfologiyasi va distal o'zan o'tkazuvchanligini yuqori aniqlikda baholash imkonini yaratadi. Taklif etilgan ikki bosqichli diagnostika algoritmi (RDS + MSKT) xirurgik taktikaning asosli tanlanishini ta'minlab, davolash natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.